



# 2021- yil yanvar-fevral oylarida Samarqand viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi





**2021- yil yanvar-fevral**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtini tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

**Xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona  
va tashkilotlar ulushi**

**65,6 %**

**Xizmatlar sohasida  
kichik tadbirkorlikning  
ulushi**

**68,3 %**

**Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi**

**657,7 ming so'm**

**104,7 %**

**Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi**

**2 573,2 mld. so'm**

**Ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari  
hajmining o'sish  
sur'ati**

**106,7 %**

2021- yil yanvar-fevral


Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 573,2 mlrd. so'mga** yetib, uning nominal hajmi **378,1 mlrd. so'mga** oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **106,7 %ni** tashkil etdi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-fevral oylarida)





## 2021- yil yanvar-fevral

## Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-fevral oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>2 573,2</b>	<b>106,7</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	124,7	107,9
Moliyaviy xizmatlar	397,2	126,9
Transport xizmatlari	578,3	99,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<b>558,4</b>	<b>103,5</b>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	92,4	110,4
Savdo xizmatlari	743,3	104,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	60,5	100,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	121,6	99,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	45,8	115,4
Ijara xizmatlari	88,9	116,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	69,9	104,0
Shaxsiy xizmatlar	105,3	103,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	56,1	97,8
Boshqa xizmatlar	89,2	101,8

# Samarqand viloyati statistika boshqarmasi

2021-yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

### Nisbatan yuqori ko'rsatkich

#### Nisbatan past ko'rsatkich



Boshqa xizmatlar



Ijara xizmatlari



Kompyuterlarni  
ta'mirlash xizmatlari



Ko'chmas mult bilan  
bog'liq xizmatlar



Me'morchilik sohasidagi  
xizmatlar



Sog'liqni saqlash  
sohasidagi xizmatlar

Savdo xizmatlari

28,9 %

Transport xizmatlari

22,5 %

Moliyaviy xizmatlar

15,4 %

Aloqa va axborotlash -  
tirish xizmatlari

4,8 %

Ta'lim sohasidagi  
xizmatlar

4,7 %

Shaxsiy xizmatlar

4,1 %


Yashash va ovqatlanish  
xizmatlari

3,6 %

**2021- yil yanvar-fevral**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, %da






**2021- yil yanvar-fevral**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Transport sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining sezilarli darajada pasayishiga qaramay, xizmatlarning umumiyligi hajmida ularning ulushi ustun bo'lib qolmoqda – **22,5 %**.

## Transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi (2021- yil yanvar-fevral oylarida)



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar




Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keldi.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi.

### Avtomobil transporti xizmatlarining tashish turlari bo'yicha tarkibi, %da

2020- y. yanvar-fevral



2021- y. yanvar-fevral



Yuk tashish

Yo'lovchi tashish

2021- yil yanvar-fevral oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **68,5 %**ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-fevral oylarida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **69,5 %**ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-fevral oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida savdo xizmatlarining ulushi **28,9 %**ni tashkil etdi, bu esa **743,3 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-fevral oylarida ularning hajmi **634,8 mlrd. so'mga** yoki umumiyligi hajmining **28,9 %iga** to'g'ri kelgan.

### Savdo xizmatlari

#### 2020- y. yanvar-fevral

Xizmatlar hajmi  
**634,8 mlrd. so'm**

O'sish sur'ati  
**103,8 %**

Ulushi  
**28,9 %**



#### 2021- y. yanvar-fevral

Xizmatlar hajmi  
**743,3 mlrd. so'm**

O'sish sur'ati  
**104,1 %**

Ulushi  
**28,9 %**



**2021- yil yanvar-fevral**

**Dastlabki ma'lumotlar**

2021- yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismini, aniqrog'i **76,2 %**ini tashkil etdi.


## Savdo xizmatlari tarkibi

(2021- yil yanvar-fevral oylarida)

**Avtomobillar  
va mototsikllar ulgurji  
va chakana savdosiga,  
jumladan, ularni  
ta'mirlash xizmatlarini  
qo'shgan holda**



**Ulgurji savdo  
xizmatlari  
(avtomobillar  
va mototsikllar  
savdosidan  
tashqari)**



**Avtomobillar  
va mototsikllar  
savdosidan  
tashqari chakana  
savdo bo'yicha  
xizmatlar**



**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo ulushi **75,8 %**ga yetgan.

**2021- yil yanvar-fevral**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingen foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## **Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-fevral oylarida)**



Moliyaviy xizmatlar hajmi **397,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-fevral oylarida ularning hajmi **302,7** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yil yanvar-fevral oylarida ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi **15,4 %**ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-fevral oylarida ularning ulushi **13,8 %**ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **94,5** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **26,9 %**ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-fevral oylarida ularning o'sish sur'ati **146,4 %**ga yetgan.



## 2021- yil yanvar-fevral

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **88,1 %**ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra sug'urta xizmatlarining ulushi **3,7 %** oralig'ida qayd etildi.

## Dastlabki ma'lumotlar

### Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar-fevral oylarida)



**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **91,7 %**ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi **5,1 %**ga to'g'ri kelgan.

**2021- yil yanvar-fevral**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021- yil yanvar-fevral oylarida)

**2020- y.  
yanvar-fevral**

113,3  
mlrd. so'm

118,0 %

5,1 %

**2021- y.  
yanvar-fevral**

124,7  
mlrd. so'm

107,9 %

4,8 %



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar

116,4  
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi

121,6  
mlrd. so'm

2020- y.  
yanvar-  
fevral



2021- y.  
yanvar-  
fevral

138,7 %

O'sish sur'atlari, %da

99,6 %

2021- yil yanvar-fevral oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **121,6** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi **4,7** % ni tashkil etdi. 2020-yilning mos davriga nisbatan **99,6** %ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar hajmi **116,4** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan o'sish **38,7** % darajasida qayd etilgan.

2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlamanagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm

73,6

92,4

2020- y.  
yanvar-fevral

2021- y.  
yanvar-fevral



O'sish  
sur'ati, %da

103,1

110,4

2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **18,8 mlrd. so'mga** ortdi.



2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

80,1 %

2021- y. yanvar-fevral

19,9 %

19,8 %

80,2 %

2020- y. yanvar-fevral

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash  
bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **80,1 %** bilan ustunlik qildi.

*Taqqoslash uchun:* 2020- yilda ularning ulushi **80,2 %**ni tashkil etgan.

**2021- yil yanvar-fevral**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi**  
 bu – sog'lijni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2020- y.  
yanvar-fevral**

**2021- y.  
yanvar-fevral**

**37,3  
mlrd. so'm**

**Xizmatlar  
hajmi**

**45,8  
mlrd. so'm**

**118,8 %**

**O'sish  
sur'ati**

**115,4 %**

**1,7 %**

**Xizmatlarning  
jami hajmidagi  
ulushi**

**1,8 %**





2021- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

### Xizmatlar hajmi

### Hajmning o'sishi

**657,7  
ming so'm**

**85,8 ming  
so'mga**

2021- yil yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **657,7** ming so'mga yetdi.

2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati **104,7 %**ni tashkil etdi.



**104,7 %**

### O'sish sur'ati

**Taqqoslash uchun:** 2020-yil yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **571,9** ming so'mni tashkil etgan.